

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR FORMING THE HARMONY OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN STUDENTS

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

PhD, Associate Professor Bukhara State University

Xojiyeva Matluba Shukurovna

Lecturer, Department of Pedagogy Bukhara State University

Annotation

This article provides a theoretical and methodological analysis of the pedagogical mechanisms for forming the integration of national and universal values among students in higher education. The study, based on an axiological approach, reveals the content of value integration and systematizes such mechanisms as content-integrative, motivational-axiological, activity-oriented, reflexive-analytical, and socio-cultural mechanisms. In addition, the pedagogical conditions ensuring the effectiveness of these mechanisms are substantiated. The results of the study contribute to ensuring the moral and ethical development of students within the higher education system.

Keywords: value, national values, universal values, axiological approach, pedagogical mechanism, value integration, educational process.

TALABALARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

Buxoro davlat universiteti p.f.f.d(PhD) dotsent

Xojiyeva Matluba Shukurovna

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim jarayonida talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ilmiy-nazariy

jihtadan tahlil qilinadi. Tadqiqotda aksiologik yondashuv asosida qadriyatlar integratsiyasining mazmuni ochib berilib, mazmuniy-integrativ, motivatsion-aksiologik, faoliyatga yo'naltirilgan, reflektiv-tahliliy hamda ijtimoiy-madaniy mexanizmlar tizimlashtiriladi. Shuningdek, ushbu mexanizmlarning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar asoslanadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qadriyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, aksiologik yondashuv, pedagogik mexanizm, qadriyatlar integratsiyasi, ta'lim jarayoni

Kirish

Globalashuv va ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirishdir. Zamonaviy ta'lim paradigmasida bilim berish bilan bir qatorda shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, ta'lim jarayonini aksiologik yondashuv asosida tashkil etish, qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini nazariy asoslash va tizimlashtirishdan iborat Qadriyatlar nazariyasi va aksiologik yondashuv muammolari falsafa va pedagogika fanlarida keng o'rganilgan. Xususan, qadriyatlarning mohiyati, ularning shaxs rivojidagi o'rni hamda ta'lim jarayoniga integratsiyasi masalalari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va aksiologik paradigma asosida qadriyatlarni shakllantirish muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash masalasi hali ham tizimli pedagogik mexanizmlar nuqtai nazaridan yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil (falsafiy, pedagogik adabiyotlarni o‘rganish);
- tizimli yondashuv (qadriyatlar integratsiyasini kompleks tahlil qilish);
- qiyosiy tahlil (milliy va umuminsoniy qadriyatlarni solishtirish);
- umumlashtirish va modellashtirish.

1. Qadriyatlar uyg‘unligining pedagogik mohiyati

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi shaxsning ijtimoiylashuvi, madaniy identifikatsiyasi va global tafakkurini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu uyg‘unlik talabaning nafaqat o‘z milliy qadriyatlariga sodiq bo‘lishini, balki boshqa madaniyat va qadriyatlarga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi.

Mazmuniy-integrativ mexanizm Mazmuniy-integrativ mexanizm ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quv mazmunini ma’naviy-axloqiy jihatdan boyitish va tizimli ravishda qayta tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmning mohiyati shundan iboratki, qadriyatlar alohida mavzu yoki qo‘shimcha element sifatida emas, balki barcha o‘quv fanlari va ta’lim komponentlariga uzviy singdirilgan holda beriladi. Natijada talaba bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida qadriyatlarni ham tabiiy ravishda anglab boradi va ularni shaxsiy dunyoqarashining bir qismiga aylantiradi. Mazkur mexanizm doirasida o‘quv dasturlarini qadriyatlar asosida boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda fanlarning mazmuni qayta ko‘rib chiqilib, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi g‘oyalar, tushunchalar va misollar kiritiladi. Masalan, tarix, adabiyot, falsafa, pedagogika kabi fanlarda qadriyatlar bevosita yoritilsa, texnik va tabiiy fanlarda esa ularning ijtimoiy va axloqiy jihatlari bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Shu tariqa, har bir fan talabaning qadriyatlar haqidagi tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi. Fanlararo integratsiyani

ta'minlash ham mazmuniy-integrativ mexanizmning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Qadriyatlar ko'p qirrali va murakkab hodisa bo'lgani sababli, ularni turli fanlar kesimida o'rganish talab etiladi. Fanlararo yondashuv orqali talaba bir xil qadriyatning turli ilmiy nuqtai nazardan qanday talqin etilishini ko'radi, bu esa uning tafakkurini chuqurlashtiradi va tizimli fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, "adolat" tushunchasi huquqshunoslikda qonuniylik mezoni sifatida, falsafada axloqiy kategoriya sifatida, pedagogikada esa tarbiyaviy prinsip sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, milliy va global kontekstni uyg'unlashtirish mazkur mexanizmning samaradorligini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar an'ana, urf-odat, madaniy meros asosida shakllangan qarashlar bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlar inson huquqlari, erkinlik, bag'rikenglik, tinchlik kabi universal tushunchalar ham uyg'un holda berilishi zarur. Bu yondashuv talabalarda bir vaqtning o'zida milliy o'zlikni anglash va global dunyoqarashni rivojlantirish imkonini yaratadi. Natijada ular turli madaniyat va qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, ochiq fikrli va tolerant shaxs sifatida shakllanadi. Umuman olganda, mazmuniy-integrativ mexanizm ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini qadriyatlar asosida uyg'unlashtirish orqali talabalarda chuqur, barqaror va ongli qadriyatli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Motivatsion-aksiologik mexanizm Motivatsion-aksiologik mexanizm talabalarda qadriyatlarga nisbatan ichki ehtiyojni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u shaxsning qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishi va ularga amal qilishini ta'minlaydi. Ushbu mexanizmning mohiyati shundaki, qadriyatlar tashqi talab yoki majburiyat sifatida emas, balki talabaning ichki e'tiqodi, hayotiy pozitsiyasi va shaxsiy maqsadlariga aylanishi lozim. Shu jihatdan, ta'lim jarayonida qadriyatlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglatish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaga insonparvarlik, adolat, mas'uliyat, halollik kabi umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, shuningdek, milliy qadriyatlarning shaxs kamolotidagi ahamiyati hayotiy misollar, real

vaziyatlar va muammoli savollar orqali yetkaziladi. Natijada talaba qadriyatlarni nazariy tushuncha sifatida emas, balki zarur hayotiy mezon sifatida anglay boshlaydi. Mazkur mexanizm doirasida rag‘batlantirish tizimini joriy etish ham muhim o‘rin tutadi. Talabalarning qadriyatlarga asoslangan ijobiy xatti-harakatlari, ijtimoiy faolligi va mas’uliyatli yondashuvi turli shakllarda e’tirof etilishi lozim. Bu jarayonda nafaqat moddiy, balki ma’naviy rag‘batlantirish vositalari e’tirof, maqtoov, jamoa oldida tan olish, sertifikatlar berish kabi usullar samarali hisoblanadi. Rag‘batlantirish orqali talabalarda ijobiy xulq-atvorni takrorlashga nisbatan ichki ehtiyoj yuzaga keladi va qadriyatlarga sodiqlik mustahkamlanadi. Shaxsiy motivatsiyani kuchaytirish esa ushbu mexanizmning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Har bir talabaning individual qiziqishlari, ehtiyojlari va maqsadlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish orqali uning ichki motivatsiyasi rivojlantiriladi. Talaba o‘z hayotiy maqsadlari bilan qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglab yetganda, ularni ongli ravishda qabul qiladi va ularga amal qilishga intiladi. Bunda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, shaxsiy tajribaga asoslangan topshiriqlar muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, motivatsion-aksiologik mexanizm talabaning ichki dunyosiga ta’sir etish orqali qadriyatlarni chuqur va barqaror shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm samarali tashkil etilganda, qadriyatlar shaxsning ajralmas qismiga aylanadi va uning xulq-atvori hamda faoliyatida izchil namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-madaniy mexanizm talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirishda muhim o‘rin tutib, ta’lim muhitini ma’naviy, madaniy va ijtimoiy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizm orqali qadriyatlar bevosita nazariy bilim sifatida emas, balki kundalik ijtimoiy tajriba, muloqot va madaniy faoliyat jarayonida shakllanadi. Natijada talabalar qadriyatlarni chuqur anglab, ularni o‘z hayotiy faoliyatiga tatbiq etishga o‘rganadi, ma’naviy muhit yaratish ushbu mexanizmning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasasida sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirish

talabalarning qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish uchun zarur shartdir. Bunday muhit o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, adolat va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samimiy, ishonchga asoslangan munosabatlar, akademik halollik tamoyillariga rioya etish, ijobiy psixologik iqlimni ta‘minlash orqali talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Shu bilan birga, milliy an‘ana va qadriyatlarga hurmat muhitini yaratish orqali talabalarning milliy o‘zligini anglash darajasi oshadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirish bir yoqlama jarayon emas, balki ko‘p omilli pedagogik tizimni talab etadi. Har bir mexanizm o‘zaro bog‘liq holda ishlaganda samaradorlik oshadi. Ayniqsa, ta‘lim jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan va reflektiv yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta‘minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur uyg‘unlik talabaning nafaqat kasbiy kompetensiyalarini, balki uning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy faolligini va fuqarolik pozitsiyasini ham shakllantiradi. Natijada talaba o‘z milliy qadriyatlariga sodiq qolgan holda, umuminsoniy qadriyatlarni anglay oladigan va ularga amal qiladigan barkamol shaxsga aylanadi. Bu esa uning global ijtimoiy-madaniy makonda muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta‘minlaydi. Talabalarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar tizimli va kompleks xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Ya‘ni, mazkur jarayon alohida metod yoki vosita bilan emas, balki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan mazmuniy-integrativ, motivatsion-aksiologik, faoliyatga yo‘naltirilgan, reflektiv-tahliliy hamda ijtimoiy-madaniy mexanizmlar majmuasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlarning har biri o‘ziga xos funksiyani bajarib, yagona pedagogik tizim sifatida ishlaganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Ta‘lim jarayonida aksiologik yondashuvni joriy etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. Aksiologik yondashuv ta‘lim mazmunini

qadriyatlar bilan boyitish, talabaning ichki motivatsiyasini shakllantirish va uning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali ta'lim jarayoni faqat bilim berishga yo'naltirilgan tizimdan chiqib, shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ijtimoiy-madaniy muhitga aylanadi, ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Xususan, qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlash qobiliyati, ijtimoiy faolligi va kasbiy mas'uliyati ortadi. Shu bilan birga, bunday yondashuv ta'lim muhitining ma'naviy-psixologik holatini yaxshilab, sog'lom pedagogik iqlimni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdixakimovich X.K. Aksiologik yondashuv asosida kursantlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirish //Pedagogs international research journal. – 2025. – T. 95. – №. 1. – С. 254-258.

2. Abdullaev K., Juraev B., Khabibova G. Food quality and safety control as an important factor of physical development //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 460. – С. 11001.

3. Жураев Б.Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.

4. Жураев Б.Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23

1. 5. Леонтьев А. Н., Леонтьев А. Н. Деятельность. сознание. личность. – Политиздат, 1975. – С. 5-7695.

2. Norboyeva M. Aksiologik yondashuvlar asosida bo 'lajak pedagoglarda altruizm ko 'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar //Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 7.

3. Олимов Ш.Ш., Ходжиева М.Ш. Возможности применения педагогических технологий в образовательном процессе //Молодежь и XXI век-2020. – 2020. – С. 228-231.

4. Karimova R. M. Aksiologik yondashuvning ta'limdagi ahamiyati.// Pedagogika va psixologiya jurnali. 2022. 2(4), 45-51.

5. Kluckhohn C. Values and value-orientations in the theory of action: An exploration in definition and classification //Toward a general theory of action. – Harvard university press, 1951. – С. 388-433.

6. Xodjayev B. X. Pedagogik aksiologiya” o'quv qo'llanma //T.“Fan va texnologiya. – 2011. – T. 156.

7. Ходжиева М. Ш. Совершенствование аксиологического подхода к педагогической деятельности у будущих учителей //Научный журнал. – 2020. – №. 9 (54). – С. 43-45.

8. Yoshiyena U. M. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 24-26.